

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “AXLOQ” BILAN BOG‘LIQ
SO‘ZLARNING MA’NOSI VA NUTQDAGI VAZIFASI**

Feruza Askarjanovna ALIMOVA

Ingliz tili integrallashgan kursi № 1

kafedrası o‘qituvchisi

O‘zDJTU

Annotatsiya

Mazkur maqola ingliz va o‘zbek tillarida “axloq” ma’nosini ifodalovchi leksemalarning semantik va pragmatik xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlangan. Unda axloq tushunchasini bildiruvchi so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi, nutq jarayonidagi qo‘llanishi hamda uslubiy va madaniy jihatlarini tahlil qilinadi. Shuningdek, ikki til o‘rtasidagi o‘xshash va farqli tomonlar misollar asosida ko‘rsatilib, ularning kommunikativ ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Axloq, axloqiylik, leksik birlik, semantika, qiyosiy tilshunoslik, tarjima.

Kirish

Til insonning ijtimoiy va madaniy tajribasini aks ettiruvchi vosita sifatida axloqiy tushunchalarni ham uzatadi. Shu sababli, ingliz va o‘zbek tillarida axloq ma’nosini ifodalovchi leksemalarning semantik va pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilish zamonaviy tilshunoslik va qiyosiy tilshunoslik sohalarida dolzarb masalalardan biridir. Axloqiy leksik birliklar nafaqat denotativ ma’no, balki konnotativ va pragmatik komponentlarga ham ega bo‘lib, ularning nutqda qo‘llanishi madaniy va kontekstual omillarga bog‘liq. Ingliz va o‘zbek tillaridagi axloqiy so‘zlarning semantik rang-barangligi, stilistik xususiyatlari va tarjimada yuzaga keladigan qiyinchiliklar tadqiqotning asosiy obyekti hisoblanadi. Ushbu maqolaning maqsadi ingliz va o‘zbek

tillarida axloq ma'nosini ifodalovchi leksemalarning semantik-pragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning konnotativ va stilistik xususiyatlarini tadqiq qilish hamda tarjima jarayonida yuzaga keladigan o'zaro ekvivalentlik va noekvivalentlik masalalarini yoritishdir. Tadqiqot natijalari axloqiy leksika tadqiqoti, qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ch. Ballyning fikriga ko'ra, tilning emotsional va ekspressiv funksiyasi leksik birliklarning mazmunida aks etadi, shuning uchun axloqiy leksik birliklar ham nutqdagi subyektiv baholovchi komponentni ifodalaydi. V. V. Vinogradov esa leksik ma'noning baholovchanlik xususiyatiga alohida e'tibor qaratgan bo'lib, bu tadqiqotda axloqiy so'zlarning denotativ va konnotativ ma'nolarini tahlil qilishda asosiy metodologik yo'nalish sifatida qo'llanildi. Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod A. A. Reformatskiy va E. Sapirning tillarni qiyosiy o'rganish haqidagi nazariy qarashlariga tayangan holda ishlatildi. Ushbu metod yordamida ingliz va o'zbek tillaridagi axloqiy leksemalarning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi. Semantik maydon metodi J. Trier va L. Weisgerberning nazariy qarashlariga tayangan holda axloqiy so'zlarni mazmuniy guruhlariga ajratishda qo'llanildi. Tarjima tahlilida V. N. Komissarov va P. Newmarkning ekvivalentlik va adekvatlik nazariyalariga tayangan holda, axloqiy leksemalarning tarjimada yuzaga keladigan qisman va noekvivalent holatlari aniqlanib, kontekstual moslashuv zarurati ko'rsatildi. Shuningdek, pragmatik tahlil metodi yordamida axloqiy leksik birliklarning nutqdagi funksiyasi va kontekstga bog'liqligi o'rganildi. Natijada, tanlangan metodlar majmuasi tadqiqot mavzusini har tomonlama yoritishga, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga va ingliz hamda o'zbek tillaridagi axloqiy leksemalarning semantik-pragmatik xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga imkon berdi. Ch. Bally fikriga ko'ra, leksik birliklarning emotsional-ekspressiv funksiyasi ularning semantik tarkibida aks etadi. Tadqiqotda aniqlanishicha, axloqiy so'zlarning konnotativ ma'nosi aynan bu komponent bilan bog'liq bo'lib, nutqda subyektiv baholashni ta'minlaydi. V.

V. Vinogradovning ta’kidlashicha, leksik ma’no faqat denotativ tarkibdan iborat emas, balki baholovchi, emotsional komponentlar bilan boyitilgan.

Shu bilan birga, ikki til o’rtasida qiziqarli kross-lingvistik farqlar mavjud. Masalan, o’zbek tilidagi “axloqiy tarbiya” iborasi nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy vazifani ham anglatadi, ingliz tilida esa “moral education” ko‘proq individual qaror va xatti-harakatlarni shakllantirish bilan bog‘liq. Bu farq tilda axloq tushunchasining pragmatik yo‘naltirilishini aks ettiradi va madaniyatlararo ta’lim, axloqiy normativ va qadriyatlar tizimining o‘ziga xosligini ochib beradi. Natijada, o‘zbek va ingliz tillaridagi “axloq” leksikal birliklari bir-biridan farqli semantik va pragmatik funksiyalarga ega bo‘lsa-da, umumiy jihatdan ijtimoiy me’yorlarni, shaxsiy va jamiyatga oid qadriyatlarni ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzunboyev, A. (2019). *Ingliz va o‘zbek tillarida etik qadriyatlar va leksik ifodalar*. Toshkent: Fan va Texnika.
2. Akbarov, Z. (2018). *O‘zbek tili leksikologiyasi va semantika*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.
3. Karimov, S. (2020). *Axloqiy tushunchalar va ularning nutqdagi ifodalanishi*. Toshkent: Fan.
4. Crystal, D. (2010). *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Leech, G. (1981). *Semantics: The Study of Meaning*. London: Penguin Books.
6. Lyons, J. (1995). *Linguistic Semantics: An Introduction*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Palmer, F. R. (1981). *Semantics*. Cambridge: Cambridge University Press.

8. Sobirov, R. (2017). *O‘zbek tilida axloqiy leksika va pragmatika*. Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi.
9. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.